buyicha kazib chikarilayotgan neftlarning 2/3 kismida oltingugurt mikdori kupligi kayd kilingan. Oltingugurt birikmalarning mikdoriga karab, umumiy oltingugurt mikdorini foizlarda bulishini aniklash natijalari xakida fikr yuritiladi. Oltingugurtli birikmalarning urtacha molekulyar ogirligini aniklamasdanok uning mikdorini % larda aniklash tasavvuriga ega bulish kiyin muammodir. Neft tarkibidagi oltingugurtning mikdoriga karab klassifikastiya kilish joriy kilinmagan. Sergienko xamma neftlarni 4 ta guruxga bulinadi: 1) oltingugurtsiz ($S < 0,2 \%$); 2) kam oltingugurtli ($S = 0,2-1,0 \%$); 3) oltingugurtli ($S = 1-3 \%$); 4) yukori oltingugurtli ($S > 3\%$). Kupgina neftning oltingugurtli birikmalari xarorat ta'siriga turgun emas. Shuning uchun neftni xaydashda asosan (500°S) da krekinglash vaktida past xaroratda kaynovchi neft distillyatlarida emirilish maxsulotlari – oltingugurt vodorodi va merkoptanlar tuplanadi. Bu kimyoviy jixatdan juda aktiv bulib, metalli apparaturalarni xavfli oltingugurtli korroziyasini keltirib chikaradi. Ammo ba'zi bir oltingugurtli neftlar kizdirilganda uncha kup bulmagan mikdorda oltingugurtli vodorodi va merkaptanlar ajraladi. Kurinishidek, neftni kayta ishlash jarayonlarida issiklik ta'sirida ajralgan oltingugurt vodorodi va merkaptanlarni xamda ajralmaganlarini neft bilan birga kayta ishlashning ma'nosi yukdir [31]. 1961 yil Ayvazov oltingugurtli neftlarni saralash kriteriyasi sifatida «oltingugurt soni», ya'ni 1 soat mobaynida 300°S da standart xolatdan neft kizdirilganda ajralib chikkan oltingugurt vodorodi va merkantan 1 mg – 100 grammli nisbatiga olinishini tavsiya etadi. Oltingugurt soni buyicha 3 guruxga saralash tavsiya etiladi: (to 20; $20 \div 100$; > 100). Agar termik (yukori xarorat natijasida) oltingugurtli birikmalarning ajralishini maxsus chora-tadbirlari xisobga olinmagan bulsa, neft frakstiyalarining turli xil distillyatlarida oltingugurt mikdorini aniklash natijalari tugrisidagi anik tasavvurga ega bulmay koladi. Ammo, neftning asosiy massali oltingugurtli birikmalari yukori molekulyar va kaynash xaroratiga ega bulganligi uchun 70 % dan to 90 % gacha oltingugurtli birikmalar mazut va gudronda tuplanadi.

Kupgina neftlarda misol uchun Kuybishev oblastidagi konda elementar oltingugurt topilgan. Neftda u erigan xolatda buladi. Xaydash vaktida elementar

oltingugurt kisman distillyat maxsulotiga utadi. Rangli metallar va asosan mis xamda uning kotishmalariga kisbatan elementar oltingugurt juda xam agressiv bulib xisoblanadi. Ba'zi bir neftlarda oltingugurt vodorodi erigan xolatda buladi. lekin neft distillyatlarida termik ajralish maxsulotlari bulgan boshka oltingugurt birikmalar xam buladi. Oltingugurt vodorodi juda yomon xidga ega bulib, buguvchi gaz xamda korroziyani keltirib chikaradi. Tozalash jarayonida uni tula yukotish zarur.



Oltingugurtning asosiy massa ulushi oltingugurt salkovchi organik birikmalar va smolali moddalarda mujassamlashgan. Turli xildagi neftlarda oltingugurtli birikmalarning kuyidagi turlari: merkantaplar, alifatik sulfimdlar va disulfitlar, tiofanlar, tiofenlar xamda xar xil strukturali polistiklik oltingugurtli birikmalar topilgan.

Hozirgi vaktida neft tarkibidan turli xil usullar bilan 120 dan ziyod oltingugurt birikmalarning vakili topilgan.


Merkaptanlar, yoki tiospirtlar yangi nomenklaturada tiollar – $R-SH$ – tuzilishga ega. Metilmerkaptan (metantiol) – gaz bulib kaynash xarorati $5,9^{\circ}S$ ga teng. Etilmerkaptan va undan yukori molekulyar gomologlari suyuklik bulib suvda erimaydi. S_2 dan S_6 gacha bulgan merkaptanlarning kaynash xarorati $35-140^{\circ}S$. Merkaptanlar uta yokimsiz xidga ega. Bu xid past (kuyi) vakillarida shunchalik intensivki, xatto ($0,6 \cdot 10^{-4}$ - $2 \cdot 10^{-6}\%$, C_2H_5SH uchun) mikdorda bulganda xam uziga xos xid bilan sezilib turadi. Ularning bu xossasidan amaliyotda shaxarlarni gazlashtirishda (gaz bilan ta'minlashda) gaz liniyalarini soz va nosozligi tugrisida ogoxlantirish uchun foydalaniladi. Gazda u odorant (xid tarkatuvchi) sifatida kushiladi. Neftlarda merkaptan mikdori unchalik kup emas. Masalan, Boshkirdiston va Tatariston konlaridagi neftlarda merkaptanlar umumiy oltingugurtli birikmalarning 0,1 dan 15,1 % bulishi aniklangan.

Ishimboev konidagi neftning benzin frakstiyasidan Obolenstev va uning xamkasblari yordamida kuyidagilar: etilmerkaptan – S_2N_5SH ; ikki propilmerkaptan – $SN_3SN(SN)SN_3$; vtor-butilmerkaptan – $SN_3SN(SH)C_2H_5$; tret-butilmerkaptan –



$(CH_3)_3CSH$; d-metilpropilmerkaptan – $SN_3-SN_2-SN(SN_3)SN$; butilmerkaptan – C_4H_9SH ; α, β - dimetilpropilmerkaptan – $CH_3CH(CH_3)CH(CH_3)SH$; α -metilbutilmerkaptan – $SN_3(SN_2)_2SN \cdot (SN_3)SH$; amilmerkaptan – $S_5N_{11}SH$. Merkaptanlarning 23-individual vakillari (metildan to oktilmerkaptanlargacha) turli xildagi xorijiy neftlar tarkibidan ajratib olingan. Merkaptanlarni 300^0S gacha kizdirilganda oltingugurt vodorodi ajralishi bilan birga disulfidlar xosil bulish jarayoni xam boradi. Uta yukori xaroratda oltingugurt vodorodi tuyinmagan uglevodorodlarga ajraladi:



Kimyoviy xossalari jixatdan merkaptanlar spirtlarga uxshaydi. Ishkorlar va ogir metallar oksidi bilan merkaptanlarni xosil kiladi. Merkaptanlarning ogirligi oshishi bilan ularning merkaptidlari shunchalik engil suv bilan gidrolizlanadi va kaysiki ularni ishkorli tozalash jarayonini ogirlashtiradi.



Kuchsiz oksidlovchilar, xattoki xavo xam merkaptanlarni disulfidlar xosil bulguncha oksidlaydi, kuchli oksidlovchilar esa to sulfokislotalargacha oksidlaydi.




Tovar maxsulotlari tarkibida aralashmalarda merkaptanlarni bulishi juda zararli xisoblanib, asosan rangli metallarni korroziyaga uchrashishi keltirib chikaradi xamda kreking-benzinlarda smolalar xosil kiladi, neft maxsulotlariga juda yokimsiz xid beradi.

Alifatik sulfidlar yoki tioefirlari yangi nomenklaturada tioalkanlar kuyidagicha tuzilishiga ega R-S-R'. Bu suyuq modda yokimsiz xidga ega. S₂-S₇ sulfidlar uncha yukori bulmagan kaynash xaroratga ega neftni xaydash vaktida benzin distillyatga utadi. Keyingi vaktlarda kuyidagi sulfidlar topilgan.

	kaynash xarorati, °S
Dimetilsulfid	37,3
Metiletilsulfid	66,6
Metilizopropilsulfid	84,8
Dietilsulfid	92,6
Metilpropilsulfid	95,5
Etilizopropilsulfid	107,4
Etilpropilsulfid	118,5
Dipropilsulfid	142,8

Gaz va shunga uxshagan boshka sulfidlarning xammasi bulib 24 xili topilgan. Ochik rangli distillyatlarda alifatik sulfidlarning mikdori boshka birikmalarga karagnda asosiy bosh urinni egallaydi. Ularning benzin, kerosin va dizel yokilgisida umumiy mikdori 50-80% ni tashkil etadi. Kimyoviy xossalari jixatdan sulfidlar neytral moddalar bulib, ishkorlar bilan reakstiyaga kirishmaydi. Sulfat kislotada sulfidlar yaxshi eriydi. Eng xarakterli tomoni shundaki, kupgina boshka kompleks birikmalar bilan turgun birikmalar xosil kiladi: masalan, simob xlori, vodorod ftoridi, ftoritli bor, oltingugurt angidridi va boshkalar.

Kuchli oksidlovchilar sulfidlarni to sulfonlar xosil bulguncha oksidlaydi. Bu jarayonda dastlab sulfoksidlar xosil buladi.



400⁰S da va undan yukori xaroratlarda sulfidlar H₂S va tuyinmagan uglevodorodlarga ajraladi.



Ba'zi bir neftlarda uncha kup bulmagan mikdorda disulfidlar R-S-S-R topilgan. Isitilganda ular oltingugurt, oltingugurt vodorodi va merkaptanlarga ajraladi.

Yukori molekulyar oltingugurtli birikmalar, kerosinli moyli frakstiyalarni kaytib xaydash (razgonka) djarayonida olinib, tuzilishi jixatdan polistikllikdir. Shunisi xarakterliki, oltingugurtli birikmalar xromotografik usul bilan ajratilganda u aromatik uglevodorodlar frakstiyasi bilan birga ajraladi. Bu narsa ularning tuzilish jixatdan juda yakin ekanligidan dalolat beradi.

Kupgina oltingugurtli birikmalar (to 60 % gacha) bistiklik aromatik uglevodorodlar frakstiyasiga ajraladi. Neft tarkibidan yukori molekulyar oltingugurtli birikmalarni ajratib olish juda murakkab masala bulib xisoblanadi. Shuning uchun gibrid uglevodorodlarning tuzilishi xakidagi fikrlar – kiska frakstiyalarni tarkibini taxlil kilish va ularning natijlari bilan izoxlab beriladi. Yukori molekulyar oltingugurtli birikmalarning tuzilish extimolligi asosiy strukturaviy tuzilishni elementini tashkil etgan benztifen, benztiofan, tionaften, dibenztiofen, naftiofen va xokazo.

1.4. Neftning azotli birikmalari

Neftlarda azot juda kam mikdorda bulib, ularning umumiy mikdori koidaga muvofik 0,3 % dan oshmaydi. Bundan kurinadiki, azotli birikmlara neftda 2-3 % dan kup emas. Yukori smolali neftlarda 10 % gacha bulishi mumkin. Azotning kupgina kismi ogir frakstiyalarda xamda koldik maxsulotlarda mujassamlashgan. Neftni azotli birikmalarini asosiy va neytral kislarga bulish kabul kilingan. Neftlarni kuchsiz sulfat kislota bilan ishlov berganda asosiy xarakteristikaga ega bulgan moddalar neftdan ajraladi. Kup xollarda 40 % li kislotaga spirt aralashma kullaniladi. Neftning azotli asoslari

geterostikllik tuzilishiga ega, unda xalkalar soni umumiy xolda 3 ta bulib, bitta azot atomi ixtiyoriy bir xalkada birikishi mumkin. Asosan ular piridinaning gomologlaridir. Xinolin, izoxinolin va kamrok darajada akridinodan iborat.

Hozirgi vaktida azotli asosning bu turdagi yakin gomologlarini kupginasini tuzilishi aniklangan. Piridin va uning gomologlari suyuqlik bulib, juda utkir xidlidir. Piridin 115,26⁰S da kaynaydi. Juda yaxshi yarituvchidir. Xinolin va izoxinolinning kaynash xarorati 240⁰S. izoxinolin 25⁰S da eriydi. Akridin kristal moddadir, erish xarorati 107⁰S ni tashkil etadi. Neft azotli birikmalarning neytral moddalari juda katta kismini, 80 % ni tashkil etadi. Ularning tuzilishi va xossalari kam urganilgan.

Neft azotli birikmasining 80 % i neytral moddalar tashkil etib. Neftlarning yukori molekulyar kismida mujassamlashadi. Ularning tuzilishi va xossalari kam urganilgan.. ba'zi bir neftlarda pirrol, indol, karbazol gomologlari bulishi isbotlangan.

Azotli birikmalar xam asosiy xamda neytral bulgan, temperatura ta'siriga turgun va barkarordir. Asosan kislorod katnashmaganda neft maxsulotlarini ishlatish sifatiga deyarli ta'sir kilmaydi. Ammo, lekin, dizel yokilgisi xamda mazutni saklash jarayonida azotli birikmalar smola xosil bulishini keltirib chikaradi.

1- bob bo'yicha xulosa

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki neft va neft mahsulotlari tarkibi o'ta murakkab hisblanib, uning joylashish geografiyasi va turli kimyoviy tarkibdan iborat bo'lganligi uni qayta ishlashda ham murakkab jarayonlar kechishi nazariy tomondan asoslab berilgan. Qayta ishalashdan hosil bo'lgan ikkilamchi neft maxsulotlarini metall konstrukstiyalari uchun korroziyaga qarshi qo'llanish bo'yicha etarli ilmiy tadqiqotlar olib borilmayotganligi adabiyotlar tahlilida o'z aksini topdi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, mazkur muammolar nafaqat Respublikamizda balki butun jahon miqyosida ham o'z echimini kutayotgan eng dolzarb muammolardandir.


Gossipol smolasi, gassipol va gidroliz lignini kabi chiqindilar tarkibida karboksil, karbonil, gidroksil, fenol guruhlari mavjud va ular korroziya mahsulotlari bilan o'zaro ta'sirlashishi natijasida erimaydigan tuzlar hosil qilib, metall sirtida agressiv ionlar o'ta olmaydigan himoya qatlamini hosil qilishi mumkin.

Adabiyotlar tahlilidan kelib chiqib, yuqoridagi sanoat chiqindilari muammolarini hal qilishga olimlar har xil yondashganlar. Ammo ulardan ekspluatatsiyadagi metall konstruktsiyalarni tozalashda ishlatiladigan texnik yuvuvchi vositalar olish, zang modifikatorlari, korroziyabardosh qoplamalar kabi import o'rnini bosadigan foydali mahsulotlar ishlab chiqarish uchun xom ashyo sifatida ishlatish imkoniyatlaridan foydalanmaganlar.

II-BOB. IZLANISH OBYEKTлари VA USLUBLARI

2.1 Ishlatilgan kimyoviy preparatlar to'g'risida ma'lumot

Tajribaning keyingi bosqichi neft bitumining gossipoll smolasi bilan modifikatsiyalash hisoblanadi. Bizga ma'lumki gossipoll smolasining asosini struktura tuzulishiga ega bo'lgan simmetrik almashingan 2,2dm(naftol-1)hosilasi hisoblanib gossipollni tashkil qiladi .Bunda fenol aromatik birikmalarning fenol gidroksil guruhlari va karbonil guruhi orto holatga joylashgan bo'ladi. Gossipol kimyoviy faol hisoblanib kislotali xossani namoyon qiladi,shu sababli ham fenolli va ham aldegidli birikmalar bilan ta'sirlashish xossasi mavjud.



Gossipoll-limon rangdagi kristalik modda bo'lib ko'p organik erituvchilarda eriydi,u gidrofob modda hisoblanadi. Gossipol metil,etil,furfurol,izopropil va butil spirtlarida, kerosinda,uayt spirtida ,dietilenglikolda,dioksanda,asetonda,dietilefirida,etilasetatda,xloroformda ,fenol va piridinda yaxshi eriydi, qizdirilganda o'simlik moyida eriydi.Gossipol tarkibida fenol guruhlari bo'lganligi sababli uning suvli -ishqorli eritmalarida eruvchanligini xarakterlaydi. Umuman olganda gossipol yuqori reaksiya qobiliyatga ega bo'lgan ,faol funksional guruhlarni saqlagan modda hisoblanadi.

Gossipol murakkab polifunksional birikma bo'lganligi sababli ko'pgina moddalar bilan ta'sirlashib oddiy va murakkab efirlar,aromatik va alifatik amin hosillalari,gossifosfotidlar,angidridlar va boshqa turdagi moddalarni hosil qiladi.

Izlanish natijalariga asosan gossipol smolasi tarkibi quyidagi ko'rsatkichlar bilan xarakterlanadi: 97.3% organik moddalar, 2.7% noorganik moddalar, 100% efirda eruvchi moddalar, kislotalik soni 65.3mg KOH/g; efir soni 91%; yog' kislotaligi 64 % efirlashda ajralib chiqadigan; 36% yog'ga mansub bo'lmagan moddalar; 0.2% P(P_2O_5 ga nisbatan); 8.5% Ca gossipol smolasi Ca li tuzlari tarkibida bo'ladi.

Tarmoq standartlari TST-18-114 talabiga asosan gossipol smolasi quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- 1) tashqi ko'rinishi-quyuq oquvchan massa;
- 2) rangi –qoramtir-jigardan toki qora ranggacha;
- 3) kislotalik soni, mg KOH/g-50-100;
- 4) zoll miqdori, % og'ir-1.0-1.2;
- 5) suv va uchuvchan moddalar, %-4gacha;
- 6) asetonda eruvchanligi, % og'ir -70-80;
- 7) solishtirma og'irligi, gr/sm³-0.98-0.99;
- 8) sovunlanish soni ,KOH/gr-80-130;

Biz o'z tajribalarimizda Kogon yog'ni qayta ishlash kombinati gossipol smolasidan foydalandik. O'z tajribalarimizda qo'llanilgan gossipol smolasi 52% dan 64% gacha sintetik yog' kislotalari va uning hosilalari, qolgan qismi esa gossipol smolasining kondensatlanish va polimerlanishidan hosil bo'lgan moddalar hisoblanadi, eng asosan soapstokdan yog' kislotalarining distillyatsiya jarayonidan hosil bo'lgan moddalardir. Gossipol smolasi tarkibida 12% gacha azot saqlagan birikmalar, 36% gacha gossipolning funksional guruhi ta'sirlashuv guruhi va 52% gacha yog' va oksi moy kislotalardan iborat bo'lganligi tajribalarimizda o'z tasdig'ini topdi. Olib borilgan tadqiqot natijalariga asosan Kogon yog' ekstraksiya kombinatida chiqadigan gossipol smolasining tarkibiy xarakteristikasi quyidagicha :

- 1) tashqi ko'rinishi- bir xil quyuq oquvchan massa;
- 2) rangi –qoramtir-jigardan toki qora ranggacha;
- 3) kislotalik soni, mg KOH/g-70-90;
- 4) zoll miqdori, % og'ir-1.0;
- 5) suv va uchuvchan moddalar, %-4gacha;
- 6) asetonda eruvchanligi, % og'ir -80;
- 7) solishtirma og'irligi, gr/sm³-0.98-0.99;
- 8) sovunlanish soni ,KOH/gr-80-130;
- 9) gossipol smolasining taxminiy tarkibiy qismi:
 - moy va oksimoy kislotalar-52%;
 - o'zaro ta'sirlashuv mahsulotlari-36%;
 - azot saqlagan birikmalar-12%.

2.2 Bitumli kompozitsiya olish va uning fizik -mexanik xossalarini o'rganish

Bitumli kompozitsiya silindr idishlarda harorat 110 °C dan aralashtiriladi . 440-460gr bitum va 70-80 gr gossipoll smolasi aralashtiriladi .Bir xil massa hosil bo'lgandan keyin 4 soat davomida 40-45 °C da quritgich shkafida ushlanadi .Hosil bo'lgan germetik material fizik-mexanik xossalari aniqlanadi.

Bitumli polimer kompozitsiya namlikni yutish qobiliyati aniqlashda quyidagi jihozlar ishlatiladi: laboratoriya tarozisi,sekundomer,metallik chizg'ich,filtr qog'ozi. Namlikni yutish qobiliyatini aniqlash quyidagicha amalga oshiriladi: namuna- m_1 o'lchab olinib suv solinadigan idishga shunday joylashtiriladiki maqsad uning ustidagi suv qatlami 50mm dan kam bo'lmasin. Suvga joylashtirilgan namuna 1 soat davomida saqlanadi ,keyin esa suvdan olinib quritiladi va o'lchanadi- m_2 ,namunaning suvdan olingan vaqti bilan o'lchash orasidagi vaqt 60 sek dan oshmasligi kerak.

Bitumli kompozitsiyaning yumshatish harorati quyidagicha aniqlanadi: shisha plastinka glitserin bilan surtiladi va uning ustiga halqa joylashtiriladi. Halqa ichiga esa suyuqlantirilgan bitumli kompozitsiya quyiladi. So`ngra 20 min davomida halqali bitumli kompozitsiya ochiq havoda sovitiladi. Halqali bitumli kompozitsiya kimyoviy stakanga joylashtirilib, suv bilan to`ldiriladi, 10 mindan so`ng suvdan olinib bitum sirtida pinset bilan po`lat shariklar qo`yiladi va qaytadan kimyoviy stakanga tushiriladi. Ushbu stakan isitgich qurilmasiga o`rnatiladi, halqa gorizonta l shaklda turishi kerak. Suvning harorati har minutda 5 °C ga ko`tarilishi kerak, qizdirish bitumli kompozitsiyani po`lat sharikdan halqaga oqib tushmaguncha davom ettiriladi va oqib tushish boshlangan harorat bitumli kompozitsiyaning yumshatish harorati hisoblanadi.

Kompozitsion polimer materiallarda ignaning chuqurroq kirishi quyidagicha aniqlanadi: suvsizlantirilgan va eritilgan bitum metallik sita orqali metallik idishlarga quyiladi, quyilgan bitumli kompozitsiyaning metallik idishdagi bitumli kompozitsiyaning balandligi idishning yuqori qismidan 5 mm past bo`lishi kerak. Bitumli kompozitsiya solingan idish 25 °C da havoda sovitiladi, so`ngra bitumli kompozitsiya solingan idish kristalizatorga joylashtiriladi. Kristalizator suv bilan to`ldirilgan bo`ladi. Kristalizator Penetrometr qurilmasiga joylashtirildi. Uchli ignalar bitumli kompozitsiya sirtiga tegar-tegmas joylashtiriladi. Ignaning bitum sirti bilan uchrashishini aniqlash uchun shisha oynalar bitum sirtiga joylashtiriladi va ignaning bitum sirtiga qancha miqdorda singganligini aniqlab boriladi.

II bob bo'yicha xulosa

Neftni qayta ishlashdan hosil bo`lgan chiqindilarning tarkibi va sifat miqdori kimyoviy usullar yordamida aniqlab o`rganildi. Gudron tarkibiga kiruvchi turli funktsional guruhlar ga mos bo`lgan birikmalar sinflandi.

Gudron va gossipol smolasi asosida metall konstruktsiyaning korroziyaga qarshi kompozitsiya olish va uni xossalari ni o`rganish hamda kompozitsiya tarkibiga kiruvchi kimyoviy preparatlar to`g`risida ma`lumotlar to`plandi va ularning fizik-kimyoviy xarakteristikasi keltirildi.

III-BOB. NEFT-GAZ, YOG'-MOY VA GIDROLIZ SANOATI CHIQINDILARIDAN RAQOBATBARDOSH KOMPOZISION MAHSULOTLAR Olishning FIZIK-KIMYOVIY ASOSLARI VA TEXNOLOGIYASI

3.1. Gossipol smolasini havo kislorodi bilan termik oksidlash orqali gudronsimon kompozistiyalar olish texnologiyasi

O'zbekistonning qurilish materiallariga bo'lgan mustaqilligini ta'minlash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Qurilishgudronlariga talab yildan-yilga oshib borayotganini e'tiborga olsak, bu mahsulotning hozirgi kundagi mamlakatimizda ishlab chiqarish miqdori va sifati qoniqarli ahvolda emasligi yaqqol namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham uning o'rnini bosa oladigan, mahalliy xom-ashyolar yoki chiqindilar asosida olish imkoni mavjud bo'lgan yangi turdagi mahsulotlar yaratish bugungi kunning talabidir.

Biz taklif qilinayotgangudronsimon mahsulotlar olishning yangi texnologiyasi avvalgilaridan farq qilib, gossipol smolasini yuqori haroratda oksidlashga asoslangan. Tadqiqotlarimizni laboratoriya sharoitida modellashtirilgan oksidlash kolonnasida olib bordik. Tadqiqotlarni ko'rsatishicha, gudronning fazoviy o'tish chegarasi nafaqat gossipol smolasi tarkibidagi komponentlar tabiatiga, balki oksidlanish haroratiga va havo kislorodining berilish tezligi hamda vaqtiga ham bog'liqligi aniqlandi. Shu uchta parametrlar ko'rsatkichlarini o'zgartirgan holda turli fizik-mexanik xossaligudronsimon mahsulotlar olishga erishdik. Gossipol smolasini havo kislorodi bilan termik oksidlash natijalari 6 - jadvalda keltirilgan. Haroratning yuqori bo'lishi birinchi navbatda destruktivlanish tezligini oshiradi. Bunda birikmalardagi radikallarning oksidlanish transformatsiyasi oshadi.

Tadqiqot natijalaridan ko'rinib turibdiki, gossipol smolasini termik oksidlash haroratini va vaqtini o'zgartirgan holda turli markadagigudronsimon mahsulotlar olish imkoniyati mavjud. Oksidlash haroratni 230 °S da saqlab, havo sarfi, 100 m³ /soatni tashkil qilgan holda oksidlash vaqti, 180 minutni tashkil etsa, 25 °S da igna botish chuqurligi (0,1mm) 45-62 ni, yumshash harorati, 55-58 °S ni, 25 °S da

cho'ziluvchanlik 39 mm, chaqnash harorati, 315 °S ni tashkil etadi. Bu o'z navbatida neft asosidagi BN 50/50 markaligudronga to'g'ri keladi. Tadqiqodlarimiz ko'rsatishicha, oksidlash haroratni 250 °S da saqlab, havo sarfi, 100 m³ /soatni tashkil qilgan holda oksidlash vaqti, 150 minutni tashkil etsa, 25 °S da igna botish chuqurligi 22-28 ni, yumshash harorati, 72-77 °S ni, 25 °S da cho'ziluvchanlik 3 mm, chaqnash harorati, 318 °S ni tashkil etadi. Bu o'z navbatida neft asosidagi BN 70/30 markaligudronga to'g'ri keladi. Agarda oksidlash harorati 270 °S, havo sarfi, 100 m³ /soat bo'lib, oksidlash vaqti 120 minutni tashkil etsa, 25 °S da igna botish chuqurligi 8,0-15 ni, yumshash harorati, 95-100 °S ni, 25 °S da cho'ziluvchanlik 1 mm, chaqnash harorati 320 °S ni tashkil etadi. Bu o'z navbatida neft asosidagi 90/10 markaligudronga to'g'ri keladi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, kompozistiyaning chaqnash harorati neft asosidagigudronlarnikidan ancha yuqori (315-320 °S) bo'lib, yong'in hafsizligini ta'minlaydi.

6-jadval

Gossipol smolasini havo kislorodi bilan oksidlash orqaligudronsimon kompozistiya olish bo'yicha tadqiqot natijalari


Oksidlash sharoiti °S	Oksidlash vaqti, min	25 °S da igna botish chuqurligi, 0,1mm	Yumshash harorati, °S	25 °S da cho'ziluv- chanligi, mm	Chaqnash harorati, °S
230	60	130	33	60	310
	90	108	35	50	312
	120	90	40	44	315
	150	75	47	38	315
	180	45-62	55-58	39	315
250	60	95	42	43	312
	90	62	50	25	316

	120	38	58	10	315
	150	22-28	72-77	3	318
270	60	70	76	25	312
	90	30	72	10	317
	120	8,0-15	95-100	1	320
	130	7,5	105	2	320


Bitum olish jarayonida oksidlash vaqtining penetrastiyaga, cho'ziluvchanlikka, yumshash va chaqnash haroratlariga bog'liqligi quyidagi 3-6 rasmlarda keltirilgan. Izoh: I– 230 °S da, II– 250 °S, III– 270 °S haroratlarda olingangudronsimon mahsulotlardir.

3.2. Госсипол смоласи асосида битум ўрнини босувчи композиция олиш технологияси


Tadqiqotlarimizning keyingi bosqichlarini oksidlash jarayonini katalizatorlar yordamida intensivlashga qaratdik. Bu maqsadda FeO katalizator sifatida ishlatildi. Katalizator ishtirokida havo sarfi 110 kg/soat dan 90 kg/soat gacha kamayishi aniqlandi. E'tiborli tomoni shuki, temir oksidi miqdorining oshishi oksidlanish vaqtining kamayishiga olib keldi. Natijalardan ko'rinib turibdiki, katalizator FeO miqdori 0,1% ni tashkil etganda optimal natijalar olindi.




3-rasm. Turli haroratlarda oksidlanish vaqtining penetrastiyaga ta'siri



4-rasm. Oksidlanish vaqtining kompozitsiya cho'ziluvchanligiga ta'siri



5-rasm. Oksidlanish vaqtining kompozitsiya yumshash haroratiga ta'siri




6-rasm. Gossipol smolasini oksidlash vaqtining chaqnash haroratiga ta'siri

Termik oksidlash vagudronsimon mahsulotlar olishning texnologik sxemasi 7- rasmda keltirilgan.

Bunda issiq havo reaktsiya uchun faqat reagent sifatidagina xizmat qilmasdan, balki reaktordagi gossipol smolasining haroratini 250 °S dan yuqori bo'lishini ham ta'minlaydi, yani issiqlik tashuvchi agent sifatida ham xizmat qiladi. Shuni ham ta'kidlash lozimki, havo isitgich (1) 250270- °S haroratdagi bug' yordamida qizdiriladi.

Reaktsiya tezligini oshirish maqsadida bunker (7) orqali umumiy massaning 0,1 % miqdorida FeO katalizatori qo'shiladi. Termik oksidlash jarayoni 120 minut davom qiladi. Shundan so'ng tayyor bo'lgan massa nasos (8) yordamida qadoqlash uskunasi (9) ga tushib, turli sig'imdagi idishlarga sovutgichdan o'tkazilgan holda qadoqlanadi.






**7-rasm. Gossipol smolasini havo kislorodi yordamida termik oksidlash
vagudronsimon mahsulotlar olishning texnologik sxemasi**

- 1–qobiq trubali qizdirgich; 2–havo kompressori; 3–barbatyor;
4–oksidlash reaktori; 5 – aralashtirgich; 6 – elektromotor;
7–katalizator uchun idish; 8–markazdan qochma nasos; 9–qadoqlovchi

Olingan mahsulotlarning IK-spektroskopik analiz natijalari ko'rsatishicha termik oksidlash jarayoni gossipol smolasi tarkibidagi to'yinmagan yog' kislotalarining qo'sh bog'lari hisobiga ketadi. Gossipol smolasidagi olein ($S_{17}N_{33}SOON$) va linol ($S_{17}N_{31}SOON$) kislotalari to'g'ri chiziqli uglerod zanjiridan iborat bo'lib tarkibida qo'sh bog' tutadi. IK- spektrning $2310-2520\text{ sm}^{-1}$ sohadagi valent tebranishlari intensivligi kamaygani bu qo'sh bog'lar oksidlanganligidan darak beradi. Karbonil guruhlari yutilish sohasi va intensivligi $1700-1750\text{ sm}^{-1}$ bo'lishi birinchi sxema bo'yicha jarayon ketganligidan darak beradi. Gossipol smolasining model strukturasi kvant kimyoviy hisoblari ham bundan dalolat beradi. Hosil bo'layotgangudronsimon kompozitsiyaning qovushoqligi ortishi va molekulyar og'irligining ortib eruvchanligi pasaygani fikrimizni to'g'riligidan darak beradi.

Gossipol smolasi asosidagigudron (GSAB) asosan izolyastion qatlam sifatida ishlatiladi. Ushbu kompozitsiya metall yuzalari bilan o'zaro ta'sirlashib

mustahkam qatlam hosil qiladi. Bunda quyidagi mexanizm bo'yicha reakstiya sodir bo'lishi aniqlandi:



Demak, xulosa qilib aytish mumkinki, temir ionlar va aktiv funkstional guruhlar hisobiga kuchli adgezion bog'lanadi. Ular bir biriga diffuziyalanib, mustahkam qatlam hosil bo'ladi. Hosil bo'lgan qatlam gidrofob bo'lib suv va boshqa agressiv ionlarni o'tkazmaydi.

Ilk bor yog'-moy kombinati chiqindisi gassipol va gudron asosida past haroratda (70°S) va qisqa muddatlarda (60 min) yuqori tozalash darajasini (97-98%) ta'minlovchi texnik yuvuvchi vositalarni olish mumkinligi fizik-kimyoviy tahlillar asosida isbotlandi. Yangi texnik yuvuvchi vositaning yuvish effekti mexanizmi o'rganildi. Ekstrakstion fosfat kislotasi, gidroliz sanoati chiqindisi lignin, furfuril spirti va geksametilentetramin asosida zangni modifikastiyalovchi va metall yuzasida turg'un himoya qatlami hosil qiluvchi yangi turdagi kompozistiyalar yaratildi. Yaratilgan kompozistiya zang qatlam bilan birikib xelat kompleks hosil qilishi ko'rsatib berildi. Ilk bor gossipol smolasini havo kislorodi bilan oksidlash orqali turli markadagigudronsimon kompozistiyalar olish usuli yaratildi. Ushbu jarayonda kislorodning qo'sh bog' bilan birikishi IQ-spektroskopik usulda o'rganildi va molekullarning tikilishi hisobiga molekulyar massaning ortishi ko'rsatildi.

Ushbu vositalarning chiqindilar asosida yaratilishi o'z navbatida regionning ekologik muhitini yaxshilaydi, ishlab chiqarishning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini oshiradi va olinayotgan mahsulotlar tannarxini keskin kamaytiradi.

Gassipol asosida olingan texnik yuvish vositasi sinovdan o'tkazilsa va har bir tonna mahsulot evaziga iqtisodiy samara beradi.

Yangi turdagi zang modifikatori va zangga qarshi kompozistiyalarni Navoiy tog'-metallurgiya kombinatiga qarashli Zarafshon-Uchquduq magistral gaz quvurida qo'llashga va sinovdan utkazish rejalashtirilgan.

Gossipol smolasini havo kislorodi yordamida oksidlashga asoslangangudron olish texnologiyasi normativ meyoriy xujjatlari ishlab chikilmokda.

3- bob bo'yicha xulosa

Olib borilgan tajriba natijalariga asoslanib ekspluatastiyadagi zangli metall konstrukstiyalarni yuvishdan tortib, zangga qarshi qoplama bilan ishlov berishga zarur vositalarini olish ustida sistematik izlanishlar olib borildi. Ushbu vositalarni yog'-moy, gidroliz sanoati va kapralaktam ishlab chiqarish chiqindilari va boshqa texnogen resurslar asosida olishning fizik-kimyoviy, texnologik asoslari yaratildi hamda amaliyotga tadbiq qilindi. Bu o'z navbatida yuqoridagi chiqindilar bilan bog'liq barcha ekologik, iqtisodiy va boshqa muammolarni kompleks hal qilish imkoniyatlarini ochib berdi.

Yog'-moy kombinati chiqindisi gassipol va gudron asosida past haroratda (70°S) va qisqa muddatlarda (60 min) yuqori tozalash darajasini (97-98%) ta'minlovchi yangi texnik yuvuvchi vositalar olindi. Mazkur TYuV ning optimal tarkibi (mas. %) gassipol – 35,5-38,5; uniflok – 0,33-0,40; soda-sulfat aralashmasi – 26,5-30,0 va qolgani suv ekanligi aniqlandi. Olingan kompozistiyaning tasir mexanizmi o'rganildi va texnik xarakteristikalar aniqlandi.

XULOSA

1. Ilk bor yog'-moy kombinati chiqindisi gassipol va gudron asosida past haroratda (70°S) va qisqa muddatlarda (60 min) yuqori tozalash darajasini (97-98%) ta'minlovchi yangi texnik yuvuvchi vositalar olindi. Mazkur TY u V ning optimal tarkibi (mas. %) gassipol – 35,5-38,5; uniflok – 0,33-0,40; soda-sulfat aralashmasi – 26,5-30,0 va qolgani suv ekanligi aniqlandi. Olingan kompozistiyaning tasir mexanizmi o'rganildi va texnik xarakteristikalar aniqlandi.

2. Ekstrakstion fosfat kislotasi, geksametilentetramin, furfuril spirti va gidroliz lignini asosida yangi avlod zang modifikatorlari olish texnologiyasi yaratildi va fizik-kimyoviy jihatdan batafsil asoslab berildi. Kompozistiyaning optimal tarkibi (mas.%) N_3RO_4 -22-25, gidroliz lignini 15-25, $\text{S}_5\text{N}_6\text{O}_2$ 1,01,5- va $(\text{SN}_2)_6\text{N}_4$ 0,08-0,1 ekanligi topildi.

3. Ilk bor gossipol smolasini havo kislorodi bilan termik oksidlashga asoslangugudronsimon kompozistiyalar olishning yangi texnologiyasi yaratildi. Oksidlash harorati $230-270^{\circ}\text{S}$, vaqti 120,150,180 minutni va havo sarfi $100 \text{ m}^3/\text{soat}$ ni tashkil qilgan holda olingangudronsimon kompozistiyalarning 25°S da iga botish chuqurligi mos ravishda (0,1mm) 45-62, 22-28, 8-15 ni, yumshash harorati 55-58, 72-77, 95-100 $^{\circ}\text{S}$ ni va cho'ziluvchanliklari 39, 3, 1 mm ni tashkil qildi. Bu ko'rsatgich o'z navbatida neft asosidagi BN 50/50, 70/30, 90/10 markaligudronlarga to'g'ri kelishi isbotlandi.

3. Yangigudronsimon kompozistiyalarning chaqnash haroratlari neft asosidagigudronlarnikidan ancha yuqori ($315-320^{\circ}\text{S}$), yong'in hafsizligini ta'minlashga asos bo'ladi. Gossipol smolasini termik oksidlash jarayoniga katalizatorlar ta'sirlari o'rganilib, FeO katalizatorining 0,1% miqdori havo sarfini $100 \text{ m}^3/\text{soat}$ dan $90 \text{ m}^3/\text{soat}$ gacha kamaytirishi isbotlandi.

Адабиётлар рўйхати

- 1.М.Г.Рудин. А.Е. Дабкин «Краткий справочник нефтепереработка» Л «Химия» 1980г, 35-45-бетлар
2. «Химия нефти» Под реактий проф. З.И.Сюняева. Л.Химия 1984г.
3. Г.И.Трофимова «Курс физики» М. «Высшая школа» 1985г.
4. Б.В.Белянин, В.Н.Ерих. Технический анализ нефтепродуктов и газа., Л.: Химия, 1975 г, 88-91 с.
5. Гун Р.Б.Нефтяныебитуми.-М.:Химия .1978-432 бет
- 6 .Ахметова Р.С. ва бошк. Характеристика битумов .полученных окислением в реакторах различной конструкции. Труды СоюзДорНИИ-М.1971
- 7.РозенталД.А. Битуми . Получение и способы модификации.-Л. :ЛТИ. Ленсовета1979
- 8.Колбоновская А.С. Дорожные битуми –М.Транспорт,1973
- 9.Патент №4211576,США.Битумные композиций.
- 10.Грудников И.Б. Производство нефтяных битумов –М. Химия 1983.
- 11.Битумные материалы. Асфальти ,смолы,пеки-М.Химия 1974.
- 12.Ребиндер П.А. О физико химической механике битумных материалов. Труды СоюзДорНИИ-М.1972
- 13.ГОСТ 6617-76. Строительные нефтяные битумы.
14. ГОСТ 9548-74 .Нефтяные кровельные битумы.
15. ГОСТ 22245-90. Нефтяные дорожные битумы.
- 16.Кисина Н.А. Новые гидроизоляционные и кровельные материалы и их долговечность.-Лю энергия ,1980.
- 17.Попченко С.Н. Холодная асфальтовая гидроизоляция. –Л ,Стройиздат,1977.
- 18.Ходжаев С.А. Структура, технология и свойства бетона для кровельных покрытий .-Ташкент.2001

19. Розентал Д.А. Модификация свойств битумов полимерными добавками .-М.1988
20. Сони́на Н.М. Разработка состава и исследование свойств битумов ,модифицированных высокомолекулярными соединениями с целью получения морозостойких кровельных покрытий. –М.1970
21. Розентал Д.А. Особенности совмещения битумов полимерами .-1976
22. Шульженко Ю.П. Безрулонные кровельные материалы.-М. 1976
23. Шульженко Ю.П. Мастичные кровельные и гидроизоляционные материалы на основе хлорсульфополиэтилена. –М.1988
24. Ротер Ф. Труды международного симпозиума по применению каучука в битумных покрытиях.-Уфа,1971.
25. Коршак В.В. Термостойкие полимеры . – М.1969.
26. Лебе́дова И.К. Разработка и исследование высоконаполненных битумно-минеральных кровельных композиций для рубероида с целью повышения его эксплуатационных свойств. –М.1980
27. Мишенков В.В. Внедрение кровельных битумных эмульсий катионного типа .-1977
28. Попченко С.Н. О расчете долговечности покрытий из полимер – битумных материалов. -1981
29. Руденский А.В. Дорожные асфальтобетонные покрытия.-М.1992
30. Поваляев М.И. Кровли промышленных зданий. Основы повышения надежности. –М.1985
31. Аврутин Ю.Е. Железобетонные крыши жилых и общественных зданий.- М.1971
32. Сурмели Д.Д. Влияние глубины отбора масляных фракций при перегонки нефти на физико-механические свойства окисленных битумов и их погодоустойчивост.-М.1957

33. Воюсткий С.С. Растворы высокомолекулярных соединений. – М. Химия, 1960
34. Макаров Л.И. Использование амортизационных шин и отходов производства резиновых изделий.-Л.Химия ,1986
35. Козловская А.А. Полимерные и полимербитумные материалы для защиты трубопроводов. 1968
36. Догаткин Б.А. Химия эластомеров.-М. Химия ,1972.
37. З.И.Сюняева. «Химия нефти» Л. «Химия» 1984 г, 27-37,52 –59,183-187 бетлар
38. Мухленова. «Общая химическая технология». «Высшая школа»
39. В.Н.Ерих. Химия нефти и газа. Ленинград. 1969 г.27-37,114-183 ,210-214 бетлар
40. Г. Сарданашивили, А.И Лвова «Примеры и задачи по технологии переработки нефти и газа. 23-27 бетлар.

Buxoro davlat universiteti kimyo-biologiya fakul'teti
5440400- kimyo ta'lim yo'nalishi bitiruvchisi
Farmonov Sardorbekning «Gossipol smolasi asosida
neft' bitumi o'rnini bosuvchi kompozitsiya olish
texnologiyasini ishlab chiqish» mavzusidagi bitiruv
malakaviy ishiga

T A Q R I Z

Fan va texnikaning taraqqiy etishini ta'minlash tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bilan chambarchas bog'liq. Tabiiy resurslarni qayta ishlash jarayonida ishlab chiqarish korxonalarida asosiy ma'sulotlar bilan bir qatorda ko'p miqdorda chiqindilar ham hosil bo'lmoqda. Mazkur chiqindilarning asosiy qismi ishlab chiqarishning kimyo, oziq-ovqat, metallurgiya va qog'oz sanoatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Mamlakatimiz prezidenti I.A.Karimov o'zining "Jahon moliyaviy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va chorvalari" nomli asarida ko'rsatib o'tganlaridek, korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashni yanada jadallashtirish, zamonaviy, moslashuvchan texnologiyalarni keng joriy etish hamda import o'rnini bosadigan, eksportga yo'naltirilgan va mahalliyashtiriladigan ishlab chiqarish quvvatlarini rivojlantirish, mamlakatimizning ham tashqi, ham ichki bozorda barqaror mavkega ega bo'lishini ta'minlaydi.

Yuqorida aytib o'tilgan chiqindilarni qayta ishlash, ular asosida hozirgi kunda taqchil bo'lgan, import o'rnini bosa oladigan yangi turdagi mahsulotlar olish va shu tariqa mazkur chiqindilardan xom ashyo sifatida yanada samarli foydalanish, shuningdek mazkur chiqindilardan xom ashyo sifatida yanada samarali foydalanish, shuningdek ular bilan bog'liq ekologik, iqtisodiy

muammolarni hal qilish bugangi kunda o'z echimini kutayotgan dolzarb muammolardan biridir.

Bitiruvchi 40 nomdagi adabiyotni o'rganib, 46 betdan iborat bitiruv malakaviy ishini yozgan.

Farmonov Sardorbek o'zining intizomi, yuksak ma'naviyati, bilimga chanqoqligi, jamoatchiligi bilan o'rtoqlariga o'rnak bo'lib kelmoqda.

Ish O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining bitiruv malakaviy ishga ko'ygan talablariga tula javob berishini inobatga olib, uni himoya qilishga tavsiya etaman.

Ilmiy rahbar

professor M.R.Amonov

Buxoro davlat universiteti kimyo-biologiya fakul'teti
5440400- kimyo ta'lim yo'nalishi bitiruvchisi
Farmonov Sardorbekning «Gossipol smolasi asosida
neft' bitumi o'rnini bosuvchi kompozitsiya olish
texnologiyasini ishlab chikish» mavzusidagi bitiruv
malakaviy ishiga

T A Q R I Z

Mamlakatimiz prezidenti I.A.Karimov o'zining "Jahon moliyaviy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va chorvalari" nomli asarida ko'rsatib o'tganlaridek, korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik kayta jihozlashni yanada jadallashtirish, zamonaviy, moslashuvchan texnologiyalarni keng joriy etish hamda import o'rini bosadigan, eksportga yo'naltirilgan va mahalliyashtiriladigan ishlab chikarish quvvatlarini rivojlantirish, mamlakatimizning ham tashqi, ham ichki bozorda barqaror mavkega ega bo'lishini ta'minlaydi.

Neftni kayta ishlashdan hosil bo'lgan chikindi gudron va boshqa texnogen resurslar asosida raqobatbardosh yangi kompozitsiyalar yaratish, zang modifikatorlari zangdan samarali himoya qiluvchi kompozitsion qoplamalar olishning kimyoviy, fizik-kimyoviy, texnogen asoslarini yaratish hamda amaliyotga tadbik qilingan.

Ko'zlangan maksadga erishish uchun qo'yidagi vazifalar belgilangan va hal qilingan

-neftni kayta ishlash sanoati chikindisi- gudron va gossipol smolasi asosida kompozitsion vositalar olish mumkinligi nazariy va amaliy jihatdan isbotlagan;

-gossipol smolasini havo kislorodi bilan oksidlash jarayonini o'rganish shu asosida gossipol smolasidan neft`gudroni o'rnini bosadigan yangi

turdagigudronsimon kompozitsiyalar olishning texnologiyalarini ishlab chiqish va amaliyotga tadbik etilgan;

- gossipol smolasi va gudron kabi chikindilar tarkibida karboksil, gidroksil, feno guruhlar mavjud va ular korroziya mahsulotlari bilan o`zaro ta`sirlanishi natijasida erimaydigan tuzlar hosil qilib, metall spirtida agressiv ionlar o`ta olmaydigan himoya katlamini hosil qilishni o`rganilgan;

SHu bilan birga quyidagi kamchiliklarni ko`rsatish lozim deb hisoblayman.

1. Korroziyaga qarshi ingibitor tarkibini ishlab chiqishda qaysi faktorlarga asoslanib komponentlar tanlanganligi asoslanmagan.

2. ekspluatatsiyadagi metall kuvurlarni ishlab chiqilgan ingibitor asosida koplash texnologiyasi keng yoritib berilmagan.

3. Taklif etilayotgan korroziyaga qarshi ingibitor vositasiga texnologik reglament ishlab chiqilsa mazkur dissertatsiya ishining nufuzi yanada ortar edi.

Biroq bu kamchiliklar bitiruv malakaviy ishing umumiy bahosiga salbiy ta`sir etmaydi.

Ish O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligining bitiruv malakaviy ishiga ko`ygan talablariga javob berishini inobatga olib, men ishni «a`lo» bahoda baholayman

Taqrizchi

BuxDU Umumiy kimyo
kafedrasi mudiri

S.I.Nazarov

Buxoro davlat universiteti kimyo-biologiya fakul'teti
5440400- kimyo ta'lim yo'nalishi bitiruvchisi
**Farmonov Sardorbekning «Gossipol smolasi asosida
neft' bitumi o'rnini bosuvchi kompozitsiya olish
texnologiyasini ishlab chiqish» mavzusidagi bitiruv
malakaviy ishiga**

T A Q R I Z

Neft paydo bulishining birinchi anorganik gepotezasi, ya'ni «karbidli gipoteza» 1877 yilda D.I. Mendeleev tomonidan 1892 yilda «kosmik gepoteza», Sokolov tomonidan va 1902 yilda «vulkanli gipoteza», Kost tomonidan taklif etilgan bulsada usha davrning kupchilik olimlari tomonidan bu gipotezalar ta'kib etila boshlandi. 1930 – 40 yillarga kelib mutlako gipotezalar unitildi. Lekin 40 yillardan keyin bu gipotezalar yana kayta yangilangan; kayta ishlangan kurinishda kuchli sovet olimlari tomondan yaratila boshlandi. Ular uchun umumiy gipoteza uglevodorodlarning karbidlar, metallar, suv va kislotalar bilan uzaro ta'siri natijasida sintezlanishi xisobiga paydo bulgan degan goya, xamda Fisher – Tropsha sxemasiga asosan vodorod va uglerod oksidlaridan xosil bulgan degan fikrlar xam mavjuddir. Neft saqlovchi xududning xosil bulishi, yer qa'ridagi yoriklarda uglevodorodlarning kuchishi (migrastiyasi), orkali yuzaga kelgan degan tasavvurlar ilgari surilgan.

Sxematik tarzda erda haet paydo bulishini Kravstov kuyidagicha talkin etadi. Dastlab gazsimon uglevodorodlarning anorganik sintezi orkali suyuk uglevodorodlarning xosil bulishi, keyinchalik esa ulevodorodlar va xaetning paydo bulishi, ya'ni uning tasavvuricha birinchi bulib neft, sungra esa xaet paydo bulgan degan goyani ilgari surgan. Nixoyat shunga karamasdan yakkayu – yagona tulik ilmiy asoslab berilgan neftning abiogen paydo bulishi nazariyasi yaratilmagan.

Ushbu bitiruv malkaviy ishning maqsadi neftni qayta ishlashdan hosil bo'lgan chiqindi gudron va boshqa texnogen resurslar asosida raqobatbardosh yangi kompozitsiyalar yaratish, zang modifikatorlari zangdan samarali himoya qiluvchi kompozitsion qoplamalar olishning kimyoviy, fizik-kimyoviy, texnogen asoslarini yaratish hamda amaliyotga tadbiq qilish hisoblanadi.

Ko'zlangan maqsadga erishish uchun qo'yidagi vazifalar belgilangan va hal qilingan:

- neftni qayta ishlash sanoati chiqindisi- gudron va gossipol smolasi asosida kompozitsion vositalar olish mumkinligi nazariy va amaliy jihatdan isbotlash;

- gossipol smolasini havo kislorodi bilan oksidlash jarayonini o'rganish shu asosida gossipol smolasidan neft'gudroni o'rnini bosadigan yangi turdagigudronsimon kompozitsiyalar olishning texnologiyalarini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etish;

- mahsulotlarning tajriba sanoat namunalarini ishlab chiqarish va sanoat ob'ektlarida sinovlardan o'tkazish;

- gossipol smolasi va gudron kabi chiqindilar tarkibida karboksil, gidroksil, feno guruhlar mavjud va ular korroziya mahsulotlari bilan o'zaro ta'sirlanishi natijasida erimaydigan tuzlar hosil qilib, metall spirtida agressiv ionlar o'ta olmaydigan himoya qatlamini hosil qilishni o'rganish;

- yuqoridagi sanoat chiqindilari asosida eksplatastiyadagi metall konstruktsiyalarni tozalashda ishlatiladigan texnik yuvuvchi vositalar olish, zang modifikatorlari, korroziyabardosh qoplamalar kabi import o'rnini bosadigan foydali mahsulotlar ishlab chiqarish uchun xom ashyo sifatida ishlatiladigan imkoniyatlardan foydalanish;

Ishning ob'ekti va predmeti sifatida sanoat chiqindisi- gudron va gossipol smolasi, neftni qayta ishlash aralashmalaridan iborat. Tadqiqot predmeti yuqoridagi sanoat chiqindilari asosida raqobatbardosh kompozitsion materiallar olishning texnologiyasini yaratish va amaliyotga qo'llash tanlangan.

Eksplatastiyaga metall konstruktsiyalar yuzalarini tozalovchi va zangdan himoyalovchi kompozitsiyalarning yangi turi yaratilgan. Zang modifikatori olishda yangi polimer kompozitsiyalar tarkibi ishlab chiqilgan.

Shu bilan birga quyidagi kamchiliklarni ko'rsatish lozim deb hisoblayman.

1. Ishlab chiqarish chikindisi –gossipolning taxminiy tarkibi keltirilmagan.
2. Gossipol va turli ingredientlar asosidagi kompozitsiyalarning realogik xossalari to'liq o'rganilmagan

Biroq bu kamchiliklar bitiruv malakaviy ishning umumiy bahosiga salbiy ta'sir etmaydi.

Ish O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining bitiruv malakaviy ishiga ko'ygan talablariga javob berishini inobatga olib, men ishni «a'lo» bahoda baholayman

Taqrizchi

Buxoro Tibbiyot instituti

“Bioneorganik, bioorganik

va biologik kimyo kafedrasi dotsenti

H.I.Amonova